

**PREGNANT BABIES**

Khazratkulova Mukhlisa Madrahim qizi

Samarkand State Medical Institute,

218-group student of the Faculty of Pediatrics

xazratqulovamuxles@gmail.com, +998997549474

Muratova Diyora Dilshotzoda

902764029 Pediatric Faculty student

Diyoramuratova4@gmail.com

**Annotation:**

Premature infants, etiological factors, external symptoms.

**Keywords:** Premature birth rates, weight, physiological condition.

Dunyo mo'jizalaridan biri bu - chaqaloqlarning dunyoga kelishi hisoblanadi. O'rtacha hisobda to'qqiz oy muddat ichida organizm fiziologik, morfologik, anatomik, gistologik, genetik va boshqa juda ko'p o'zgarishlarni bosib o'tadigan chaqaloqlar ba'zida bu tuzilish xususiyatlaridan kechikishi va ba'zan muddatidan avvalroq dunyoga kelishlari mumkin. Odatda, bola homiladorlikning 37-42-haftasida dunyoga keladi, lekin, 37-haftadan ya'ni 260 kundan kam vaqtda ham tug'iladigan chaqaloqlar bo'lishi mumkin. Ular muddatdan oldin tug'ilgan chaqaloqlar hisoblanib, ko'p jihatdan o'z vaqtida tug'ilgan chaqaloqlardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. O'z vaqtida tug'ilgan chaqaloqlarning tana a'zolari va tizimlarini ona organizmdan tashqaridagi yangi muhitga tayyor bo'lishadi. Muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar adabtatsiyaga qoniqarli darajada tayyor bo'lmasligi mumkin. Ularning erta tug'ilishiga ta'sir ko'rsatuvchi etiologik omillariga quyidagilar misol bo'ladi:

- Homiladorlik davrida bo'lajak onaning ovqatlanish tartibi buzilishi;
- Homiladorlik vaqtida og'ir jismoniy mehnat va uzoq muddatli, bir xil holatda bajarilgan mehnatdan zo'riqishi;
- Homilador ayolning o'tkir va surunkali shamollash kasalliklariga chalinishi, emotsional stresslarni boshdan o'tkazishi;
- Ota-onadagi zararli odatlar: ichish, chekish, giyohvandlikning bo'lishi;
- Homilador ayolning 18 yoshdan kichikligi va 30 yoshdan keyin birinchi tug'ishi, otaning 18 yoshdan kichik, 50 yoshdan kattaligi;
- Oilaviy sharoitning qoniqarli bo'lmasligi, moddiy va ma'naviy yetishmovchilik;



- Homiladorlikdan oldin va keyin tibbiy nazoratdan o'tmaganligi;
- Tug'ish vaqtlari orasi 2yildan kamligi va boshqalar.

Muddatidan avval tug'ilganlikning tashqi alomatlari quyidagilar:

- terisi burishgan(ingl. wrinkled), to'q qizil rangli;
- teri osti yog' qatlamining deyarli yo'qligi;
- quloq supralari yumshoq;
- ko'p tukli sochlar, ayniqsa yuzida, qo'l-oyoqlarda, orqasida;
- kindikni past joylashuvi;
- jinsiy a'zolari chala rivojlanganligi
- qizlarda kichkina jinsiy a'zolari katta jinsiy organlar yopmagani, o'g'il bolalarda
- moyaklari moyakdonga tushmagan(lot. ssrotum);
- bosh suyagini choklari bitmaganligi, kichik va yondagi bosh liqildoqlarning ochiqqligi.



Chala tug'ilganlikning bir necha darajalari bor. Ularni darajaga bo'lish tug'ilgan bolaning tana vaznidan kelib chiqib belgilanadi. Agar bolaning tug'ilgandagi vazni 1 kg.dan past bo'lsa – ekstremal vaznli chala tug'ilgan bola, 1,5 kg.gacha bo'lgan bolalar – kam vaznli chala tug'ilgan bolalar, 1,5 kg tug'ilganlar esa – oddiy chala tug'ilgan bolalar deb yuritiladi. Muddatidan oldin tug'ilgan bolalarning 4 darajasi mavjud:

1-daraja: 35-37 hafta oraliq'ida tug'ilgan – vazni 2100-2500 gr;

2-daraja: 32-34 hafta oraliq'ida tug'ilgan – vazni 1501-2000 gr;

3-daraja: 29-31 hafta oraliq'ida tug'ilgan – vazni 1001-1500 gr;

4-daraja: 29 haftadan oldinroq tug'ilgan – vazni 1000 gr dan kam.

Vazni 1500 grdan oshgan bolalarning o'pkasi tashqi muhitda faoliyat ko'rsatishga tayyor bo'lmagani tufayli ular boshida maxsus nafas olish apparatiga bog'langan bo'ladilar va bunday bolalarda issiqlik termoregulyatsiyasi rivojlanmaganligi tufayli, ular harorati tashqi muhitdan ko'ra issiqroq bo'lgan maxsus plastik yotoq (kuvez) ichida yotadilar. Chala



tug'ilganlik darajasi 2 bo'lgan bunday chaqaloqlarga uyga ruxsat berilishi uchun bolalarning vazni kamida 2500 gr ni tashkil qilishi shart. Uchinchi darajada chala tug'ilgan bolalarga bo'lgan e'tibor yanada kuchli bo'ladi. Chunki, bu bolalarning o'pkadan tashqari boshqa a'zolari ham juda zaif bo'ladi. Ularning yurak urishi va qon bosimi maxsus tibbiyot uskunalari yordamida doimiy ravishda kuzatilib turiladi. Bundan tashqari, chala tug'ilgan bolalar qonida eritrotsitlar (qon yaratuvchi moddalar) soni kamligi va ularning tez nobud bo'lish xavfi yuqoriligi tufayli bu bolalarga qon quyish talab etilishi mumkin.

Vazni 1000 gr dan kam bo'lgan bolalarni yashab ketishi uchun shifoxonada ularni jiddiy nazorat ostida saqlaymiz. Bu bolalarning organlari juda zaif bo'lgani uchun ularga chala tug'ilgan bolalar orasida eng katta ahamiyat talab etiladi. Hayotining har bir kuni bunday toifadagi bolalarda katta bir yutuq. Ularni yashab ketishi uchun shifoxonada barcha anjom va dori vositalari mavjud. Bu bolalar hayotining birinchi 6 haftasi juda og'ir bo'ladi. Shu oraliqda bolaning ayrim organlari ishdan chiqishi yoki oshqozon ichak tizimi, qon aylanish tizimi pand berib qo'yishi mumkin. Shunda vaqtida amalga oshirilgan muolajalar bolaning hayotini asrab qoladi. Chala tug'ilganlik darajasi 1 va 2 bo'lgan bolalarni ko'krak suti bilan ovqatlantirish juda foydali. Ayrim hollarda 3-4 darajada tug'ilgan bolalarga ham oz-ozdan ko'krak suti (maxsus shpris orqali) beriladi.

Dunyo olimlarining tadqiqotlari ko'rsatishicha, chala tug'ilgan bolalarni yashab ketishida quyidagilar juda katta ahamiyat kasb etadi:

- Onaning ovozi. Kun mobaynida ona barvaqt tug'ilgan bolasini yonida unga qo'shiq aytib, alla aytib, u bilan suhbatlashmog'i lozim.
- O'yinchoqlar. Chala tug'ilgan bolalarning ko'zi deyarli ochilmaydi. Shunga qaramasdan bola atrofida rang-barang qiziqarli o'yinchoqlar mavjudligi uning salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan.
- Bolani «kenguru» qilib ko'tarish. Ya'ni bola tanasi onaning badani bilan birga bo'lishi juda muhim. Bolani shifokor nazorati ostida kuvezdan olib onaning ko'kraklari orasiga joylashtirib yotish lozim. Shu harakat orqali, birinchidan, bolaning terisi ona terisi bilan kontaktda bo'ladi, ikkinchidan, onaning nafas olishini his qilayotgan bola birga nafas olib, nafas olish tizimi rivojlanadi. «Kenguru» qilish barvaqt tug'ilgan bolalarni parvarish qilishda eng muhim muolaja desak adashmaymiz.
- Bolaga har kuni u naqadar sevimli va kerakli ekanligi haqida aytish lozim. Onaning mehrini sezgan bola onasi uchun ham yashab ketadi.



• Bolani steril qo'llar bilan silash shaklidagi massaj qilish juda muhim. Agar silashni aynan onasi amalga oshirsa, uning foydasi ikki barobar kuchli bo'ladi. Chaqaloqlarning kulgusi, yig'isi, har xil quvnoq qiliqlari har bir insonning kunglida quvonch tuyg'usining tug'yon urishiga sabab bo'lishi hech gap emas. Shunday ekan, Allohinning buyuk tuhfasini parvarishlash, asrab-avaylash, to'g'ri ta'lim ila voyaga yetkazish, komil inson qilib tarbiyalash har birimizning burchimiz hisoblanadi. Buning uchun, poydevor ustunlarini sog'lom dunyoga kelishini ta'minlashimiz kerak.

#### Foydalingan adabiyotlar:

1. " Bolalar kasalligi propedevtikasi " Ashurova D.T. Tursunova O. A. 2018-yil.
2. " Bolalar kasalliklari" Daminov D.T. Xalmatova B.T 2012-yil.